SURXONDARYO HAVZASI GIRUDOFAUNASINING TAKSONOMIK TARKIBI

[a]Usmonov Saloxiddin Xomidjon o‘g‘li
[a]Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti 3-bosqich (PhD) doktoranti

[b]Solijonov Xayrulla Xabibulla o‘g‘li
[b]Green University huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti 2-bosqich (DSc) doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo havzasi hududidagi zuluklar faunasi birinchi marotaba tizimli ravishda tadqiq etildi va taksonomik tarkibi keltirildi. Aniqlangan turlar kenja turkum, oila, urug‘, tur darajasida tahlil qilindi hamda, birlamchi ma’lumot sifatida keltirib o‘tildi.*
Kalit so‘zlar: *taksonomik, Hirudinida, girudofauna, Glossiphoniiformes, Surxondaryo.*

Bugungi kunda turli suv muhitlari va ulardagi ekologik muvozanatni ta’minlashda barcha gidrobiontlarni o‘rganish tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu organizmlarning bioxilma-xillik ko‘rsatkichlari, ekologik yashash sharoitlarini o‘rganish va istiqbolli turlarni aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Hirudinida turkumi vakillari ham ana shunday o‘ziga xos gidrobiont organizmlar sirasiga kiradi [1, B. 1-2, 2, B. 20-25, 4, B. 41-54]. Shularni inobatga olgan holda Janubiy O‘zbekiston xususan Surxondaryo havzasi zuluk populyatsiyalarini o‘rganish tadqiq etish muhim masalalardan biridir [3, B. 42-51]. Surxondaryo havzasi murakkab gidrografik xususiyatlarga ega bo‘lib, u yerda asosiy suv manbai hisoblangan Surxondaryo daryosidan tashqari, ko‘plab daryo, chashma, buloq va soylar mavjud. Bu suv obyektlari havzaning tabiiy ravishda shakllantirishda, bu esa shu yerdagi tirik organizmlarni xususan zuluklar faunasini shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi.


Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Surxondaryo havzasi hududidan Hirudinida turkumiga mansub 4 kenja turkum, 7 oila, 9 urug‘ va 10 tur mavjudligi mualliflar tomonidan aniqlandi. Quyida ularning sistematik tarkibi keltirildi:

1-jadval

Kenja turkum nomi	**Oila nomi**	**Urug‘ nomi**	**Tur nomi**
Glossiphoniiformes Tessler and de Carle, 2018	Glossiphoniidae Vaillant, 1890	*Hemiclepsis* Vejdowsky, 1884	*H. marginata* (Müller, 1774)
		Alboglossiphonia Lukin, 1976	*A. hyalina* (Müller, 1774)
			A. weberi (Blanchard, 1897)

		Helobdella Blanchard, 1896	*H. stagnalis* (Linnaeus, 1758)
Oceanobdelliformes Tessler and de Carle, 2018	Piscicolidae Johnston, 1865	*Piscicola* Blainville, 1818	*P. geometra* (Linnaeus, 1758)
Erpobdelliformes Sawyer, 1986	Erpobdellidae Blanchard, 1894	*Erpobdella* Blainville, 1818	*E. octoculata* (Linnaeus, 1758)
	Salifidae Johansson, 1910	*Barbronia* (Blanchard, 1897)	*B. weberi* (Blanchard, 1897)
Hirudiniformes Caballero, 1952	Hirudinidae Whitman, 1886	*Hirudo* Linnaeus, 1758	*H. orientalis* Utevsky & Trontelj, 2005
	Haemopidae Richardson, 1969	*Haemopis* Savigny, 1822	*H. sanguisuga* (Linnaeus, 1758)
	Praobdellidae Sawyer, 1986	*Limnatis* Moquin-Tardon, 1826	*L. paluda* (Tennent, 1859)

Aniqlangan turlar tahlil qilinganda ma’lum bo‘ladiki, 5 tur tadqiqot hududi uchun ilk bor qayd etildi hamda ulardan 1 turi O‘zbekiston zuluklar faunasi uchun ilgari ma’lum bo‘lmagan tur hisoblanadi. Izlanishlar natijasiga ko‘ra, tadqiqot hududida jami 4 kenja turkumga (Glossiphoniiformes, Oceanobdelliformes, Hirudiniformes, Erpobdelliformes) mansub, 7 oilaning turlari tarqalgan. Zuluk turlarining soni bo‘yicha tahlil qilinganda, Glossiphoniiformes va Hirudiniformes kenja turkumlari eng boy ekanligi, aksincha, Oceanobdelliformes va Erpobdelliformes kenja turkumlari kam turga ega ekanligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Surxondaryo havzasida tarqalgan zuluklar kenja turkumlaridagi turlarning ulushi.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo havzasi girudofaunasi taksonomik jihatdan tizimli o‘rganilgan bo‘lsada, ularning morfo-biologik, ekologik, bioindikatorlik, saproblik xususiyati kabi masalalar ochiqligicha qolmoqda. Shu sababli kelgusi tadqiqotlar bu hududning bioxilma-xilligini yanada chuqurroq o‘rganish lozim. Ayniqsa, zuluk populatsiyalarining zamonaviy holatini ekologik jihatdan baholash, ularning soni, tarqalishi, bo‘yicha chuqur tahlillar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tadqiqotlar nafaqat mahalliy girudofaunaning holatini baholash, balki, inson faoliyati bilan bog‘liq salbiy va ijobiy ta’sirlarni aniqlash uchun ham zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonov, S. X., Solijonov, X. X., & Izzatullayev, Z. I. (2024). Janubiy O‘zbekiston suv havzalari zuluklarini o‘rganishga oid ilk ma’lumotlar // Faunani o‘rganishning dolzarb muammolari va istiqbollari, 1 (01). B. 1-2.

2. Solijonov X.X., Usmonov S.X. Surxondaryo havzasi zuluklarining bioxilma-xilligi va endoparazit turlar ekologiyasiga oid tavsiyanoma. Andijon: “Omadbek print number one”, 2026. B. 20-25.

3. Solijonov X.X., Usmonov S.X. To‘palang daryosi zuluklarining bioxilma-xilligi va ekologik xususiyatlari. AndDU Ilmiy xabarnoma Seriya: Biologik tadqiqotlar axborotnomasi. 2024. №8 (84). B. 42-51.

4. Solijonov Kh., Utevsky S., Izzatullaev Z., Utevsky A. At the boundary of two biogeographical realms: Palearctic and Oriental leeches (Hirudinea, Glossiphoniidae) of the Ferghana Valley, Uzbekistan. Zoosystema 2026. 48 (2): 41-54.